



**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-IYUN
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyun oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz korxonalaridan 41 679,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,3 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 38,8 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 1,9 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 23,8 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 89,6 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 925,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-iyun

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-iyun

FHI,% da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33 465,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,3 % ini tashkil etdi.


2021- yil yanvar-iyun

84,1 %

2022- yil yanvar-iyun

80,3 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 10,1 % (7,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,6 % (85,8 %) va quyi texnologiyalisi – 6,0 % (6,8 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 67,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,2 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 103,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 85,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,7 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,0 % (2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 92,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Kalsiy xlorid



Suvsiz ammiak




Sement




Azot



Yogurt



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 385,8 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 130,0 % ga o'sgan), 119,6 ming tonna azot mochevina (karbamid) (146,4 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (2,7 m. %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	1 867,4	1 443,1	77,3
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	81,7	119,6	146,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	32 195,0	31 917,9	99,1
Sirka kislotasi, tonna	1 973,0	2 240,0	113,5
Kislorod, ming m ³ .	68,3	85,2	124,8
Suvsiz ammiak, ming tonna,	296,7	385,8	130,0
Kalsiy xlorid, ming tonna.	1,1	3,0	2,7 m.
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna	2 528,4	2 796,9	110,6

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati ulushi 76,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 104,1 % ni tashkil etdi, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,2 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi esa, 103,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 25 509,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 164,6 ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 299,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 892,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 129,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 69,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 572,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 104,6 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 %, fizik hajm indeksi 102,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 441,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 146,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 % ni, fizik hajm indeksi 127,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 649,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 264,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,8 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5 393,3	5 818,5	425,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 327,6	2 547,7	220,1

2022- yil yanvar-iyun oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	27 494,3	33 237,0	5 742,7
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	25 482,0	29 892,7	4 410,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 117,3 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 120,9 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 141,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyun

41,7%

2022- yil
yanvar-iyun

40,7%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-iyun

58,3%

2022- yil
yanvar-iyun

59,3%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,04 % (2021- yil yanvar-iyun oylarida 0,01 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 25,6 % ni, Navoiy shahri 21,7 % ni, Qiziltepa tumani 13,0 % ni, Xatirchi tumani 12,0 % ni hamda Navbahor tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (131,5 %) hamda Navbahor tumanida (121,1 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 25,6 % ni, shuningdek, Navoiy shahriga 21,7 % ni, Qiziltepa tumanida 13,0 % ni, Xatirchi tumanida 12,0 % ni tashkil etdi.



1 717,8 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyun

1 952,2 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-iyun

2 141,2 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

102,1 %

2021- yil

107,4 %

2022- yil

109,3 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 28,4 % ni, shuningdek, Navoiy shahrida 20,1 % ni, Xatirchi tumanida 11,6 % ni, Navbahor tumanida 9,3 % ni tashkil etdi.

1 025,4 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyun

1 137,5 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyun

1 270,7 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyun





Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 24,0 % ni, shuningdek, Karmana tumani 21,4 % ni, Qiziltepa tumani esa 19,6 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 85,4 % ni, shuningdek, Karmana tumani 9,8 % ni, Qiziltepa tumani esa 1,4 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati

2020- yil

28 503,4 mlrd. so'm

2021- yil

35 109,6 mlrd. so'm

2022- yil

41 679,6 mlrd. so'm



2020- yil

105,5 %

2021- yil

106,1 %

2022- yil

106,5 %

Navoiy sh.

107,1

35 596,0

Zarafshon sh.

105,0

175,7

G'ozg'on sh.

109,0

33,1

Karmana t.

110,2

4 097,6

Konimex t.

115,8

251,8

Qiziltepa t.

91,0

592,2

Navbahor t.

104,7

347,3

Nurota t.

108,1

151,1

Tomdi t.

105,8

23,3

Uchquduq t.

116,8

144,1

Xatirchi t.

103,0


267,4

FHI, % da



mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (234 293,4 ming so'm), Karmana tumani (30 783,2 ming so'm), Konimex tumani (6 820,3 ming so'm), Qiziltepa tumani (3 768,1 ming so'm), Uchquduq (3 736,8 ming so'm) tumanida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






Navoiy viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Karmana tumani - 4 114,4 ming so'mni, Navoiy shahrida - 3 062,7 ming so'mni, Qiziltepa tumani – 1 769,7 ming so'mni, Zarafshon shahrida – 1 736,4 ming so'mni va G'ozg'on shahrida – 1 444,7 ming so'mni tashkil etdi.


Navoiy viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 3 778 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 815 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,6 %) Navoiy shahriga, 632 tasi (16,7 %) Karmana tumaniga, 475 tasi (12,6 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan

2020-yil

3 083 dona

2021- yil

3 376 dona

2022- yil

3 778 dona



Jami yangi tashkil etilgan

2020- yil

545 dona

2021- yil

540 dona

2022- yil

569 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 243 ta loyiha bo'yicha 1 359,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 6,2 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 166 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni (49,5 foiz) ga ko'paygan.

